CHILONJIYDANING XALQ TABOBATIDA TUTGAN O'RNI

Usmonova Tursunoy Furqatovna
Buxoro davlat texnika universiteti M17-25 OOT magistranti

Qabul qilindi: 04.12.2025
Ko'rib chiqildi: 05.12.2025
Tasdiqlandi: 06.12.2025

Kalit so'zlar:
Chilonjiyda, xalq tabobati, shifobaxsh o'simlik, tarkib, efir moyi, yallig'lanishga qarshi, antioksidant.

Annotatsiya. Ushbu tezisda chilonjiydaning hozirgi davrda jahon tabobatida tutgan o'rni hamda amal qilinayotgan va xalq tabobatidagi tutgan o'rni haqida ma'lumotlar taqdim etilgan.Tezisda chilonjiydaning tarkibi,shifobaxsh xususiyatlari va uning tibbiyotdagi foydalariga oid ma'lumotlar ko'rsatilgan. Bundan tashqari chilonjiydaning davolashda qanday ishlatilishi,shifobaxsh xususiyatlari, va xalq tabobatidagi o'rni haqida tafsilotlar berilgan.

Kirish: Hozirgi kunda dorivor o'simliklardan tayyorlangan tabiiy preparatlarga talab ortib bormoqda.Chunki kimyoviy dori vositalarning nojo'ya ta'siri ko'pligi va otganizimga zarar yetkazishi insonlarni tabiiy muqobillarni izlashga undamoqda.Shunday o'simliklardan biri — chilonjiyda (Elaeagnus angustifolia) bo'lib, u Markaziy Osiyo xalq tabobatida qadimdan ishlatib kelinadi. Uning meva, barg va urug'lari shifobaxsh moddalar bilan boy, organizmga yumshoq ta'sir ko'rsatadi va ko'plab kasalliklarni davolashda yordam beradi. Chilonjiydaning ahamiyati nafaqat xalq tabobatida, balki zamonaviy fitoterapiyada ham yuksak baholanmoqda. Oxirgi yillarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda bu o'simlikning tarkibida antioksidantlar, polifenollar va biologik faol birikmalar miqdori yuqoriligi aniqlangan. Mazkur tezisda chilonjiydaning xalq tabobatidagi qo'llanilishi, kimyoviy va farmakologik xususiyatlari, shuningdek, uning zamonaviy tibbiyotdagi o'rni haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Chilonjiydaning biologik tavsifi va tarqalishi: Chilonjiyda butasimon daraxt bo'lib, O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston kabi mamlakatlarda keng tarqalgan. Qurg'oqchilikka chidamli, kam parvarish talab qiladigan o'simlik sifatida qadrlanadi. Mevalari shirin, tarkibida ko'plab shifobaxsh moddalarning mavjudligi uning dorivor ahamiyatini oshiradi. O'simlikning bargi, po'stlog'i, gullari va urug'laridan xalq tabobatida turli dori vositalari tayyorlangan.



1-rasm.Chilonjiydaning mevasi

Chilonjiydaning kimyoviy tarkibi:

Chilonjiydaning shifobaxsh kuchi uning tarkibidagi biologik faol moddalar bilan bog‘liq. U quyidagi komponentlarga boy:Vitaminlar: C, E, B guruh vitaminlari. Minerallar: kaliy, temir, magniy, mis. Organik kislotalar: limon kislotasi, olma kislotasi. Flavonoidlar va fenolik birikmalar: antioksidant xususiyatga ega. Efir moylari va yog‘ kislotalari: urug‘ida ko‘p miqdorda mavjud. Ushbu moddalarning barchasi organizmning immun tizimini mustahkamlaydi, yallig‘lanishga qarshi ta’sir ko‘rsatadi va tiklanish jarayonlarini tezlashtiradi.

Xalq tabobatida qo‘llanilishi: Chilonjiyda o‘simligi xalq tabobatida ko‘p asrlardan buyon tabiiy davolash vositasi sifatida qo‘llanilib keladi. Uning meva, urug‘, barg va po‘stlog‘ida efir moylari, flavonoidlar, taninlar, organik kislotalar, S va E vitaminlari mavjudligi sababli bir qator kasalliklarda yuqori shifobaxsh ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, chilonjiyda mevasidan tayyorlangan damlama va qaynatmalar organizmdagi yallig‘lanish jarayonlarini kamaytiradi, immunitetni mustahkamlaydi, nafas yo‘llarini yumshatadi va virusli infeksiyalarga qarshi tabiiy himoya beradi. Tadqiqotlar chilonjiyda iste’moli qon tarkibini yaxshilashi, gemoglobin miqdorini ko‘tarishi hamda yurak-qon tomir tizimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatmoqda. Xalq tabobatida mevaning quritilgan ko‘rishidan oshqozon-ichak faoliyatini tartibga solish, ich ketishini to‘xtatish, og‘ir ovqat hazm bo‘lishi muammolarini kamaytirish maqsadida foydalaniladi. Shuningdek, meva tarkibidagi tabiiy antioksidantlar terining tiklanishi, yaralarning bitishi va pigmentatsiyaning kamayishiga yordam beradi.Chilonjiyda asosida tayyorlangan moy va siroplar bolalarda ham, kattalarda ham yo‘talni yengillashtiradi, balg‘amni chiqaradi, shamollashning og‘ir bosqichlarida tez tiklanishga ko‘mak

beradi. Barg va urug‘ damlamasi esa tinchlantiruvchi, yengil uyquga chorlovchi xususiyatga ega bo‘lib, asab zo‘riqishi, stress va bosh og‘riqlarida qo‘llanadi.Ushbu xususiyatlarning ilmiy asoslanishi chilonjiydaning farmatsevtika va fitoterapiya yo‘nalishida kelajakda yanada keng qo‘llanilishiga imkoniyat yaratadi. O‘simlikning kimyoviy tarkibi chuqur o‘rganilgani sayin undan yangi dori vositalari, sirop, ekstrakt, immunomodulyator qo‘shimchalar yaratish uchun keng imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda.
Shu bois chilonjiyda xalq tabobatida nafaqat an'anaviy davolash vositasi, balki zamonaviy tibbiyot uchun istiqbolli o‘simlik sifatida ahamiyat kasb etadi. Undan oqilona, ilmiy asoslangan holda foydalanish aholining sog‘lig‘ini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sodiqova E.M. “Dorivor o‘simliklar va ularning shifobaxsh xususiyatlari”. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.
2. Abdullaeva N.S., Jo‘rayev A.B. “O‘zbekiston florasidagi dorivor o‘simliklar to‘plami”. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.
3. Matkarimov M. “Xalq tabobatida qo‘llaniladigan o‘simliklar”. – Buxoro: Talqin, 2018.
4. Karimov I., Rafiqova G. “Fitoterapiya asoslari va amaliyoti”. – Toshkent tibbiyot akademiyasi, 2021.
5.Xalq tabobati bo'yicha qo'llanma: “Tabobat ilmi”- Toshkent,2016.